

YANGILANAYOTGAN O'ZBEKISTONDA XORIJIY INVESTITSİYALARNI JALB QILISHNI TAKOMILLASHTIRISH

Toshkent moliya instituti

IB-3 guruh magistranti Mirzoxidova Gulchexra Mirzafar qizi


Annotatsiya

xorijiy investorlarning milliy iqtisodiyotga kapital mablag'lari kiritishda nafaqat korxonalar reytingi yoki xo'jalik faoliyati natijalariga, balki mamlakatning geosiyosiy joylashuvi va davlat tomonidan yuritilayotgan ichki va tashqi siyosatiga ham bog'liqligi o'rganib chiqilgan.

Kalit so'zlari: investitsiya, strategiya, hudud, moliyalashtirish manbasi, xorijiy investitsiya, aholi mablag'i, jalb qilingan mablag'.

Barchamizga ma'lumki, bugungi kunda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashda jahondagi yetakchi davlatlarning ilm-fan va texnika sohasida erishgan yutuqlari va amaliy tajribalarini o'rganish hamda ulardan foydalanish imkoniyatlarini baholash muhim hisoblanadi. Binobarin, respublikamiz iqtisodiyotining istiqboldagi taraqqiyoti asosan xorijiy investitsiyalarni jalb etish hamda samarali ishlatishga bog'liq. Shunga ko'ra, hozirda investitsiyalar mamlakatimizdagi keng qamrovli iqtisodiy islohotlar ijrosini ta'minlashning muhim asosiga aylangan. Mazkur holatlardan kelib chiqib, mavjud muammolarni tahlil qilish, xorijiy investitsiya loyihalarini o'z vaqtida va to'liq amalga oshirishga, investitsiyalarni jalb etishga va o'zlashtirishga to'sqinlik qiluvchi bir qator omillarni va kamchiliklarni aniqlash hamda uning yechimlari yuzasidan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish mamlakatimiz iqtisodiyoti uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Hozirda, O'zbekiston ayrim global indekslarda ishtirok etmoqda. Jumladan, Jahon banki tomonidan yuritiladigan Doing business reytingida O'zbekiston 2012 yilda 190 davlat ichida 166 o'rinda turgan edi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ishbilarmonlik muhitini yanada tubdan yaxshilash va tadbirkorlikka yanada keng erkinlik berish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni doirasida amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida mamlakatimiz 2021 yilga kelib 64-o'ringacha ko'tarilishga muvaffaq bo'ldi, ya'ni 8 yil ichida 98 pog'onaga ko'tarilishga erishildi.



1-rasm. O'zbekistonning 2010-2021 yillarda Doing Businessdagi o'rni va mamlakatga jalb etilgan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmi¹

¹ Jahon banki guruhining Doing Business bo'yicha 2010-2020 yillar uchun hisobotlari; Dunyo mamlakatlariga

Ammo ushbu o'sish to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning hajm jihatidan mazkur ko'rsatkichga mutanosib oshishiga olib kelmadi. Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra, agar 2011 yilda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmi 1635 mln. AQSH dollarni tashkil etgan bo'lsa (2012 yilda 563 mln. AQSH dollarni, 2013 yilda 634,7 mln. AQSH dollarni, 2014 yilda 808,7 mln. AQSH dollarni, 2015 yilda 1041 mln. AQSH dollarni, 2016 yilda 1663 mln. AQSH dollarni, 2017 yilda 1797 mln. AQSH dollarni, 2018 yilda 624,7 mln. AQSH dollarni,) 2019 yilga kelib 2286 mln. AQSH dollar tashkil etdi. YUNKTAD ma'lumotlariga ko'ra, MDH davlatlari o'rtasida investitsiyalarni jalb etish borasida respublikamiz Rossiya, Qozog'iston, Ukraina, keyingi o'rinda joylashgan.

Yuqoridagi ma'lumotlarni tahlil qilgan holda, shuni xulosa qilishimiz mumkinki, mamlakatimiz iqtisodiyotiga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish muhim vazifalardan biridir.

Yangilanayotgan O'zbekistonga bugungi kunda xorijiy investitsiyalarni jalb qilishni yillar davomida to'planib qolgan bir qator iqtisodiy va ijtimoiy muammolarning yechimi sifatida baholab, uning oldidagi quyidagi muhim vazifalarni ko'rsatish mumkin:

- mamlakatimizning ichki bozorida talab yuqori bo'lgan – import o'rnini bosuvchi tovarlarni ishlab chiqaradigan yangi zamonaviy texnologiyalarga asoslangan, innovatsion korxonalarni barpo etish iqtisodiyotimizda yangi ish o'rinlarini yaratish imkonini beradi;
- milliy iqtisodiyotga innovatsion texnologik yangilanish kirib keladi va milliy sanoat ishlab chiqarishiga zamonaviy ishlab chiqarish vositalari va uskunalari o'rnatiladi va natijada jahon bozorida raqobatbardosh yangi turdagi milliy mahsulotlar ishlab chiqarish yo'lga qo'yiladi;
- mahalliy ishlab chiqaruvchi tadbirkorlar tomonidan xalqaro kredit liniyalarini jalb qilish orqali respublikamiz hududlarida yangi kichik erkin iqtisodiy zonalarini tashkil qilinadi hamda infratuzilma obyektlari shakllanadi, bu esa shu hududda istiqomat qilayotgan mahalliy aholining daromadlarini oshishiga xizmat qiladi;
- xorijiy investitsiyalarning mamlakatimizga kirib kelishi natijasida milliy iqtisodiyotimiz jahon iqtisodiyotiga integrallashuvi amalga oshadi.

Yuqoridagi mulohazalarni tahlili shuni ko'rsatadiki, mamlakatimizga kiritilayotgan xorijiy investitsiyalar qay darajada bo'lmasin, iqtisodiy o'sishni ta'minlovchi muhim omil sifatida ko'rishimiz mumkin.

Shu bilan birga, davlatimiz rahbari tashabbuslari bilan tashkil qilingan maxsus erkin iqtisodiy zonalariga, jumladan, Navoiy, Jizzax, Angren, G'ijduvon, Qo'qon, Urgut, Xazorasp erkin iqtisodiy zonalariga xorijiy investitsiyalarni keng jalb qilish samaradorligi tobora ortib bormoqda.

Bugungi kunda, xorijiy investitsiyalarni respublikamizga jalb qilish borasida xorijiy investorlar uchun bir qator imkoniyatlar va shart-sharoitlar mavjud. Ular jumlasiga quyidagilarni sanab o'tishimiz mumkin:

- O‘zbekistondagi ichki va tashqi siyosiy barqarorlikning mavjudligi;
- xususiy mulkchilikni qonunchilik bazasining shakllanganligi va zamonaviy raqobat muhiti yaratilganligi;
- mamlakatimizda investitsiya jarayonini qo‘llab-quvvatlaydigan zamonaviy infratuzilmaning tashkil qilinganligi;
- respublikamizning Markaziy Osiyoda qulay geografik joylashuvga egaligi;
- agrosanoat majmuasini rivojlantirishga ustuvorlik qaratilganligi va respublikaning mineral-xomashyo resurslariga boyligi;
- zamonaviy fikrlaydigan yuqori salohiyatga ega ishchi kuchi va mehnat resurslarining mavjudligi;
- iste’mol uchun ichki bozorlar hajmining yetarli darajada kengligi.

Respublikamizda milliy ishlab chiqaruvchi subyektlar faoliyatiga xorijiy va mahalliy investitsiyalarni keng jalb etish uchun korxonalar quyidagi muhim ishlarni amalga oshirishlari shart deb hisoblaymiz.